



QASHQADARYO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-mart*



QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **3577,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **16,4** ming kishiga yoki **0,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1530,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,8 %**), qishloq aholisi soni **2046,5** ming kishi (**57,2 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3577,0 ming kishi

Tabiiy o'sish

+16,4 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- aprel holatiga

Shahar




42,8%

Qishloq



57,2%


Erkaklar



50,7%

1 813,0 ming kishi

Ayollar



49,3%

1764,0 ming kishi

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- aprel holatiga

9,9 %

Mehnatga layoqatli
yoshdan kattalar

34,6 %

Mehnatga layoqatli
yoshdan kichiklar



55,5 %

Mehnatga layoqatli
yoshdagilar

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining **34,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **9,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- aprel holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3498,9	3577,0	102,2
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	290,3	297,0	102,3
Shahrisabz sh	145,3	147,8	101,8
G'uzor	218,4	223,3	102,2
Dehqonobod	157,0	160,3	102,1
Qamashi	288,2	294,5	102,2
Qarshi	267,1	273,7	102,5
Koson	306,4	313,6	102,3
Kitob	277,3	283,0	102,0
Mirishkor	127,3	130,0	102,1
Muborak	92,2	93,8	101,7
Nishon	163,5	167,5	102,4
Kasbi	209,3	213,9	102,2
Ko'kdala	184,6	189,9	102,9
Chiroqchi	262,2	269,3	102,7
Shahrisabz	231,8	235,8	101,7
Yakkabog'	278,0	283,6	102,0

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

10,1 ming kishi




O'g'il bola:

11,4 ming kishi

2024- yilning yanvar-mart oylarida **21,5** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **53,2** % ni, qiz bolalar **46,8** % ni tashkil etadi.

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart



2024- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

● 1 nafar – **98,1%**


● 2 nafar – **1,9%**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- aprel holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O‘sinh sur‘ati, % da
Qashqadaryo viloyat	22263	21478	96,5
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	1797	1688	93,9
Shahrisabz sh	727	753	103,6
G‘uzor	1435	1506	104,9
Dehqonobod	1159	1143	98,6
Qamashi	1919	1897	98,9
Qarshi	1675	1708	102,0
Koson	2085	1990	95,4
Kitob	1545	1532	99,2
Mirishkor	764	643	84,2
Muborak	539	563	104,5
Nishon	1059	1080	102,0
Kasbi	1309	1229	93,9
Ko‘kdala	1441	1320	91,6
Chiroqchi	1881	1765	93,8
Shahrisabz	1098	1056	96,2
Yakkabog‘	1830	1605	87,7

2024- yilning yanvar-mart oylarida **21,5** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **24,2** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan plus **1,7** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar- mart oylarida **25,9** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR

2024- yilning yanvar-mart oylarida **3,6** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,4** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,5** promille).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, kishi




2024- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **52,0 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,1 %** i – o‘simtalardan, **12,2 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,5 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,8 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,4 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **19,0 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIHOHLAR



2024- yilning yanvar-mart oylarida **5542** ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **6,5** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-mart oylarida **0,8** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-mart oylarida **1,1** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **51,6 %** i farzandsiz, **24,0 %** i bitta farzand bilan va **24,4 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024- yil yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **2976** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **4481** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini **1505** kishini tashkil etadi. 2023-yilning mos davrida **1824** kishi bo'lgan.

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, (kishi)




2024- yilning yanvar-mart oylarida **3,0** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **3,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,8** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **2,6** promille bo'lgan).

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, (kishi)

2024- yilning yanvar-mart oylarida **4,5** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,4** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,7** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining oʻrtacha soniga boʻlib, 1000ga koʻpaytirish orqali hisoblanadi.

Koʻchib kelganlar soni – koʻchib kelganlarning absolyut miqdori, yaʼni muayyan hududga uning tashqarisidan koʻchib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi boʻyicha roʻyxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish soʻrovnomalarini qayta ishlash natijasida koʻchib kelish.

Koʻchib ketganlar soni – koʻchib ketganlarning absolyut miqdori, yaʼni muayyan hududga uning tashqarisidan koʻchib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi boʻyicha roʻyxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish soʻrovnomalarini qayta ishlash natijasida koʻchib ketish.

Aholining migratsion oʻsishi (farqi) – hisobot davrida koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni oʻrtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi boʻlimi

Tel: 75 221-15-84, 70-70